

O‘ZBEK MILLIY LIBOSLARI TADQIQI: TARIXIY VA MADANIY TAHLILI

R.A. Berdiyeva*Farg‘ona davlat texnika universiteti,*tel: 907801337 ranoberdiyevahon@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek milliy liboslarining kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyoti, estetik xususiyatlari va bugungi kundagi ahamiyati o‘rganiladi. Milliy kiyimlar o‘zbek xalqining madaniy merosi sifatida jamiyatda tutgan o‘rni, ularning turlari va ijtimoiy ramziyati tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek milliy liboslari, madaniy meros, tarixiy rivojlanish, etnografiya, estetik tafakkur.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются происхождение, историческое развитие, эстетические особенности и современное значение узбекской национальной одежды. Национальная одежда анализируется как часть культурного наследия узбекского народа, её разновидности и социально-символическое значение в обществе.*

Ключевые слова: *узбекская национальная одежда, культурное наследие, историческое развитие, этнография, эстетическое восприятие.*

Annotation: *This article explores the origins, historical development, aesthetic characteristics, and contemporary significance of Uzbek national clothing. National attire is analyzed as an integral part of the Uzbek people's cultural heritage, including its varieties and socio-symbolic meanings within society.*

Keywords: *Uzbek national clothing, cultural heritage, historical development, ethnography, aesthetic perception.*

O‘zbek milliy liboslari — bu xalqimizning ko‘p asrlik tarixiy, madaniy va etnografik taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim madaniy boyliklardan biridir. Har bir libosda ma’naviy meros, ijtimoiy mavqe, estetik qarashlar mujassam bo‘lib, ularning har biri xalq hayotining turli jabhalariga oid ma’lumotlarni saqlab kelgan. O‘zbek xalqi ming yillar davomida o‘ziga xos madaniy qadriyatlarni shakllantirib kelgan. Bu qadriyatlar orasida milliy liboslar alohida o‘rin tutadi. O‘zbek milliy liboslari nafaqat xalqning estetik qarashlarini, balki tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, ijtimoiy-iqtisodiy holatini, diniy e’tiqodini va hatto iqlim sharoitlarini ham o‘zida aks ettiradi. Har bir libosda xalqning urf-odatlarini, an’analari, dunyoqarashi va milliy o‘zligini anglash mumkin. Bu liboslar o‘zbek millatining madaniy merosi sifatida nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro miqyosda ham tan olinmoqda. Bugungi

globallashuv jarayonida milliy o‘zlikni saqlab qolish, uni yosh avlodga yetkazish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Shunday sharoitda milliy liboslarni chuqur o‘rganish, ularning tarixiy ildizlarini aniqlash va bugungi kunda tutgan o‘rnini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.[1]

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — o‘zbek milliy liboslarining shakllanish tarixi, hududiy xususiyatlari, estetik va ramziy jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilishdir. Shu bilan birga, ularning zamonaviy dizayndagi o‘rni va yosh avlod orasida qay darajada qadrlanayotganini aniqlash ham maqolaning vazifalaridandir. Tadqiqotda tarixiy manbalar, etnografik kuzatuvlar, arxeologik topilmalar, xalq og‘zaki ijodi, zamonaviy modalar tendensiyasi tahlil qilinadi. Maqolada ilmiy yondashuv bilan bir qatorda madaniyatshunoslik, sotsiologiya, san’atshunoslik va tarix fanlarining yondashuvlaridan ham foydalaniladi.

Shuningdek, liboslar orqali jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish, gender rollar va regional tafovutlar qanday ifodalanganligi tahlil qilinadi. Natijada, o‘zbek milliy liboslari o‘zida nafaqat moddiy, balki ma’naviy boyliklarni ham mujassamlashtirgan murakkab madaniy hodisa sifatida ko‘riladi.[2]

O‘zbek milliy liboslarining kelib chiqish manbalari. Milliy kiyimlar tarixini o‘rganishda arxeologik qazilmalar, tarixiy manbalar, miniatyura san’ati va sayyohlar yozuvlari muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Qadimgi So‘g‘d, Buxoro va Xorazm madaniyatida kiyim-kechak madaniyati keng rivojlangan. Ayollar atlasdan tikilgan ko‘ylaklar, erkaklar esa belbog‘li chopon va do‘ppi kabi elementlarni kiyganlar. O‘zbek milliy liboslari o‘zining tarixiy ildizlari, rang-barang shakl va bezaklari bilan xalqning qadimiy madaniyati va turmush tarzini o‘zida mujassam etadi. Bu liboslarning kelib chiqishi o‘zbek xalqining shakllanishiga bog‘liq bo‘lib, miloddan avvalgi qadimgi davrlarga, xususan, So‘g‘diyona, Baqtriya, Xorazm, Farg‘ona va Sug‘d kabi qadimiy hududlarda yashagan xalqlarning kiyinish madaniyatiga borib taqaladi. Arxeologik topilmalar, tarixiy yozma manbalar, miniatyura san’ati namunalarida tasvirlangan kiyimlar, xalq og‘zaki ijodi va etnografik kuzatuvlar o‘zbek milliy liboslarining shakllanish jarayonini o‘rganish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.[3]

Qadimgi arxeologik qazilmalarda topilgan haykaltaroshlik va devoriy suratlar, masalan, Afrosiyob devoriy rasmlarida ko‘rsatilgan kiyimlar bugungi o‘zbek liboslariga o‘xshash elementlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu tasvirlarda uzun, keng yengli kiyimlar, bosh kiyimlar, kamarlar va bezaklar mavjud bo‘lib, ular o‘sha davrda ham kiyinish madaniyati rivojlanganligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, So‘g‘d va Baqtriya xalqlari kiyim-kechak madaniyatiga alohida e’tibor bergan.

Shuningdek, qadimgi Xorazmiylar ham o‘ziga xos libos madaniyatiga ega bo‘lgan. Ularning kiyimlari ko‘proq amaliylik va iqlim sharoitlariga moslashtirilganligi bilan ajralib turgan. Erkaklar keng va uzun ko‘ylaklar, belbog‘lar va salla o‘rashgan, ayollar esa ipak va paxtadan tayyorlangan, atlas va adras kabi rangli matolardan foydalanilgan liboslarni kiyishgan.[4]

Islom dinining kirib kelishi bilan kiyinish madaniyatida ham muayyan o‘zgarishlar ro‘y bergan. Liboslarda kamtarlik, yopiq bo‘lish, hijob va ro‘mol o‘rash singari diniy talablar o‘z aksini topgan. Ammo bu bilan milliy o‘ziga xoslik yo‘qolmagan, balki yangi madaniy qatlamlar bilan boyigan. O‘rta asrlardagi saroy liboslari, masalan, Temuriylar davridagi zardo‘zlik san’ati bilan bezatilgan kiyimlar, zamonaviy milliy liboslarning estetik negizini tashkil qiladi. Bu davrda kiyimlar nafaqat zaruriyat, balki ijtimoiy mavqe va boylik ramzi sifatida ham xizmat qilgan. Ayniqsa, chopon, do‘ppi, kamzul, atlas va zardo‘z kiyimlar yuqori tabaqa orasida keng tarqalgan.[5]

Shu tariqa, o‘zbek milliy liboslari turli tarixiy davrlar, madaniy qatlamlar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar va diniy ta’sirlar natijasida shakllanib, rivojlanib kelgan. Ularning kelib chiqish manbalari xalqimizning ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyoti va madaniy hayotining uzviy bir qismidir.

2. Ayollar va erkaklar liboslari turlari

Ayollar liboslari: Ayollar liboslari odatda atlas, adras, beqasam kabi matolardan tikilgan. Milliy ko‘ylaklar keng yelkalik, uzun yengli bo‘lib, ustiga zarli chopon yoki kamzul kiyilgan. Boshi ipak ro‘mollar bilan o‘ralgan, bezak sifatida taqinchoqlar taqilgan. O‘zbek ayollarining milliy liboslari xalqning boy madaniyati, urf-odatlarini va hududiy xususiyatlarini aks ettiradi. Ular nafaqat kundalik kiyim sifatida, balki to‘y, bayram va tantanalarda ham alohida o‘rin egallaydi. Ayollar milliy liboslari turli hududlarda o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lib, quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi:

1. **Atlas va adras liboslar** – Bu liboslar eng mashhur turlaridan bo‘lib, atlas va adras matolaridan tikiladi. Yorqin ranglar va murakkab naqshlar bu liboslarga nafislik baxsh etadi. Odatda to‘y va bayramlarda kiyiladi.

2. **Lazgi yoki xorazmcha libos** – Xorazm viloyatiga xos bo‘lib, keng yengli, uzun va rang-barang liboslar bilan ajralib turadi. Bunday liboslar ko‘pincha milliy raqslar bilan bog‘liq.

3. **Qashqadaryo va Surxondaryo uslubidagi liboslar** – Bu hududlarda ayollar ipak yoki paxta matolardan tikilgan uzun, keng ko‘ylaklar va bosh kiyimlar bilan bezanadi. Ko‘pincha zardo‘zlik bezaklar qo‘llaniladi.

4. **Samarqand va Buxoro liboslari** – Bu liboslar tarixiylik va nafislik bilan ajralib turadi. Ayollar zarli chopon, atlas ko‘ylak va kallapush yoki do‘ppi kiyadilar. Zardo‘zlik san’ati keng qo‘llaniladi.

5. **Farg‘ona vodiysi liboslari** – Ular yorqin ranglar va ko‘p qatlamli tuzilishi bilan ajralib turadi. Farg‘onalik ayollar odatda uzun ko‘ylak, ustidan esa yengil ro‘mol yoki sharpa tashlab yuradilar.

Milliy liboslar nafaqat go‘zallik, balki xalqning madaniy merosi, urf-odatlarini va qadriyatlarini ham namoyon etadi. Bugungi kunda bu liboslar zamonaviy dizaynerlar tomonidan qayta talqin qilinib, milliylik va zamonaviylik uyg‘unligida tikilmoqda.[6]

Erkaklarliboslari: Erkaklar esa doimo chopon kiyib yurishgan, bu choponlar to‘q rangli, ko‘pincha zig‘ir yoki ipakdan tikilgan. Bosh kiyim sifatida do‘ppi, ba‘zan esa salla ishlatilgan. Erkaklarning beliga bog‘langan kamarlar ularning ijtimoiy mavqeini bildirgan. O‘zbek xalqining milliy liboslari ming yillar davomida shakllangan, tarixiy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Erkaklar milliy liboslari ham ana shu jarayonlarda takomillashib, xalqning yashash tarzi, iqlimi, hunarmandchiligi va estetik qarashlariga mos ravishda rivojlangan. Bu liboslar nafaqat kiyim sifatida, balki shaxs maqomi, yosh darajasi va kasbini bildiruvchi muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, qadimgi davrlarda – ilk turkiy davrlardan boshlab, erkaklar oddiy to‘qimachilik usulida tayyorlangan paxta va jun matolardan tikilgan keng ko‘ylak va ishton kiyganlar. Keyinchalik, iqlim va madaniyatning ta‘siri ostida choponlar – ust kiyimlar keng tarqalgan. Choponlar oddiy va bayrambop turlarga bo‘lingan, zardo‘zlik bilan bezatilgan namunalar esa asosan boy tabaqaga mansub erkaklar tomonidan kiyilgan.

Temuriylar davrida erkaklar kiyimi yanada takomillashdi. Bu davrda liboslar nafaqat amaliy, balki estetik qimmatga ega bo‘ldi. Choponlar zarli matolardan tikilar, ustiga esa belbog‘ bog‘lanardi. Qimmatbaho to‘qimachilik mahsulotlari, jumladan, atlas, baxmal va zardo‘z matolar keng qo‘llanilgan. Bosh kiyim sifatida salla va do‘ppi, shuningdek, qishda telpak kiyilgan. Bu davrda kiyimlar jamiyatdagi ijtimoiy maqomni aks ettiruvchi muhim omil bo‘lgan.

Xiva, Buxoro, Qo‘qon xonliklari davrida ham erkaklar milliy liboslari o‘ziga xos shaklga ega bo‘ldi. Xivalik erkaklar uzun, tor yengli choponlar kiygan bo‘lsa, buxoroliklar esa keng yengli, og‘ir ipakli liboslarga ustunlik bergan. Qo‘qonda esa matolarning yorqin ranglari va naqshlari bilan ajralib turuvchi liboslar urf bo‘lgan. Ayniqsa, belbog‘ va do‘ppilarning naqshlarida hududiy farqlar yaqqol ko‘rinib turgan.

Erkaklar milliy libosining ajralmas qismi bu — bosh kiyimdir. Do‘ppilar, salla va telpaklar har bir hududda turlicha ko‘rinishda bo‘lgan. Misol uchun, Farg‘ona vodiysida erkaklar to‘rtburchak shakldagi oq ip bilan tikilgan qora do‘ppi kiygan bo‘lsa, Xorazmda

esa do‘ppilar yumaloq shaklda, bezakli bo‘lgan. Telpaklar qishloq joylarda keng tarqalgan bo‘lib, asosan mo‘ynali bo‘lgan.[6]

Sovet davrida milliy liboslar ommaviy kundalik kiyim sifatida deyarli siqib chiqarilgan bo‘lsa-da, bayramlar, teatr sahnalari va milliy tadbirlar orqali o‘z o‘rnini saqlab qolgan. Mustaqillikdan so‘ng esa milliy liboslarga bo‘lgan e‘tibor oshdi. Hozirgi kunda erkaklar milliy liboslari zamonaviy moda elementlari bilan uyg‘unlashtirilib, to‘y va rasmiy tadbirlarda, shuningdek, madaniy ko‘rgazmalarda keng foydalanilmoqda.

Milliy liboslar o‘zbek xalqining boy tarixiy va madaniy merosini aks ettiruvchi, milliy g‘urur va iftixor timsolidir. Erkaklar liboslari bugun ham o‘z o‘rnini yo‘qotmagan, balki zamonaviylik bilan uyg‘unlashib, yosh avlod qalbida milliy o‘zlikni mustahkamlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Hududiy farqlar. O‘zbekiston hududlarida milliy kiyimlar xilma-xil bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos bezak, rang, mato va kiyinish uslublari bilan ajralib turadi. Toshkent viloyatida ayollar atlas va adrasdan tikilgan keng yengli ko‘ylaklarni kiyishadi, ularning ustiga yaktak kiyiladi va boshlariga shokila yoki naqshli ro‘mol o‘rashadi. Erkaklar esa uzun chopon kiyib, beliga keng belbog‘ urab, boshiga do‘ppi yoki salla o‘rashadi. Ayniqsa, pichoqli belbog‘ urash urf bo‘lgan. Toshkent liboslari nafis tikilgan bo‘lib, unda gul naqshlari ko‘p qo‘llaniladi. Maxsilar esa atlas mato bilan qoplangan bo‘ladi.

Toshkent, Buxoro, Xiva, Farg‘ona va Qashqadaryo viloyatlarida liboslar o‘ziga xos uslublarda yaratilgan. Masalan, buxorolik ayollarning atlas ko‘ylaklari va zargarlik buyumlari nafisligi bilan ajralib turadi. Farg‘onada esa adras matodan tayyorlangan ko‘ylaklar keng tarqalgan.

O‘zbek liboslari faqatgina bezak emas, balki ular orqali insonning yoshi, ijtimoiy mavqei, oilaviy holati va hattoki diniy e‘tiqodini ham aniqlash mumkin bo‘lgan. Choponning uslubi, do‘ppining naqshi va ranglari ham ma’no kasb etgan.

Hozirgi kunda milliy liboslar milliy bayramlar, to‘y marosimlari, tantanali tadbirlarda faol ishlatilmoqda. Shuningdek, zamonaviy dizaynerlar milliy liboslarni modernlashtirib, kundalik kiyimlar ko‘rinishida ham taqdim etishmoqda.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘zbek milliy liboslari — bu xalqimizning tarixiy xotirasi, estetik qarashi va milliy o‘zligini ifoda etuvchi madaniy merosdir. Ularni o‘rganish, asrab-avaylash va zamonaviy hayotga uyg‘unlashtirish har bir avlodning muhim vazifasidir.

Foydalanilga aadabiyotlar

[1]. Rajapova M., Shumkarova Sh. Tikuv buyumlarini konstruksiyalash 2023

[2]. Kamilova X.X., Xamrayeva N.K. Tikuv buyumlarini konstruksiyalash. — Toshkent: Cho‘lpon nashriyoti, 2011.

[3]. Rajapova M., Shumkarova Sh. Tikuv buyumlarini konstruksiyalash. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2023.

[4]. Bobojonov X.T., Yuldashev J.Q. Tikuv buyumlarini ishlab chiqarish jihozlari. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, 2014.

[5]. Gaipova N., Tursunxo‘jayeva M. Tikuvchilik texnologiyasi va jihozlari. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2016.

[6]. Kadirova M.X., Nurmuxamedova D.I. Yengil sanoat mahsulotlarini loyihalash asoslari. — Toshkent: O‘quv qo‘llanma, 2020.